

## MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHI VA XARAKTERLANISHI

Feruza Urakova Botirjonovna

*Qo'qon davlat pedagogika instituti*

*Xorijiy tillar fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, nutqini rivojlantirish, imkoniyatlarini idrok qilish, xarakterlanishida yuz beradigan o'zgarishlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha bo'lgan yosh davri, bog'cha, o'yin faoliyati, nutq, psixik faollik, qiziqish, aqliy rivojlanish, davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanishi, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga kelishi.

## PSYCHIC DEVELOPMENT AND CHARACTERIZATION OF PRESCHOOL CHILDREN

Feruza Urakova Botirjonovna

*Kokan State Pedagogical Institute*

*1st year student of the Faculty of Foreign Languages*

**Annotation:** This article discusses the changes that occur in the upbringing of children of kindergarten age, mastery of complex actions, development of speech, perception of their capabilities, and characterization..

**Key words:** pre-school age, kindergarten, play activities, speech, mental activity, interest, mental development, the formation of patterns of character traits in children, the emergence of the foundations of moral character.

Ontogenezda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga bo'linadi. Ular:

Kichik maktabgacha yoki kichik bog'cha davri (3-4yoshlar)

O'rta maktabgacha yoki o'rta bog'cha davri (4-6 yoshlar)

Katta maktabgacha yoki katta bog'cha davri (6-7 yoshlar) shu davrlarga ajratish mumkin. Bola shu yillar mobaynida insoniyat tomonidan yaratilgan barcha predmet va hodisalarni o'rganib boradi. Bunda bola o'z tilini, odamlar orasidagi munosabatlarni, olamni o'rganadi va bu davrlar mobaynida o'zidagi faoliyatlar motivlarini rivojlantiradi va turli hil qobiliyatlarini oshirib boradi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarga ota-onalari va tarbiyachilari to'g'ri tarbiya berishi, ta'sir o'tkazishi, ularning harakatini maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali ularning mustaqil holda ovqatlanishi, kiyinishi, yuvinishi, o'z o'rnini

yig'ishtirish ko'nikmalarini tarkib toptirishga, ayrim topshiriq va vazifalarni puxta bajarish malakasini shakllantirishga erishishlari lozim. Shu bilan birgalikda maktabgacha yosh davridagi bolalarning xarakterida yuz beradigan o'zgarishlari bilish kerak.

Insonni rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola to'qqiz oy juda tez rivojlanadi. Bir yoshga to'lguncha bola oila muhiti ta'sirida bo'ladi. Bola bu davrda nutqga ega bo'lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok qilish va oila a'zolari tanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan oraliqda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bu davr oralig'ida oilaga bolaga bo'lgan e'tibor yaxshi bo'lishi lozim. Chunki bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli hil vaziyatlarda o'zini qanday tutishi kerakligini o'rganadi.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davrda bola nutqini va tafakkurini rivojlantirgan bo'lsa, bog'cha yoshdagi bolalar esa tarbiyasini, murakkab harakatlarini o'zlashtirishini, elementar gigienani, madaniy va mehnat malakalarini shakllantiradi, ijtimoiy axloq va estetik didining rivojlanishiga qaratilgan.

Maktabgacha yosh davrida bolalarning asosiy faoliyati o'yinga qaratilgan bo'ladi. 3-6 yoshli bolalar o'yinqaroq, serharakat va o'ta qiziquvchan bo'ladi.

Bola bog'chada o'zi tengi bolalar bilan do'st bo'ladi va jamoa bo'lib o'yinlar o'ynaydilar. Shu bilan bola o'zini jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirib bo'radi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinlari uchga bo'linadi:

1. Predmetli o'yinlar (15-20 minut o'ynaladi)
2. Sujetli-rolli o'yinlar (30-60 minut o'ynaladi)
3. Qoidali o'yinlar (1 soatdan - 2 kungacha o'ynaladi).

Bog'cha yoshdagi bolalarning qiziqishlari kuchliroq bo'lib, biron bilmagan narsasini turli hil savollar bilan bilishga harakat qiladi. Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayganligi sababli bog'cha yoshidagi bolalar tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir. Bolaning kamol topishida qiziqishining ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intilganligi uchun uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi. 3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar. Bundan tashqari ertak va hikoyalar tinglashni yoqtiradilar va bu bolalarning xotirasini yaxshilashga yordam beradi va zehni oshiradi.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda turli xil xarakterlari ko'rishimiz mumkin. Xarakterning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir: hayotga yo'naltirilganlik (ehtiyotlar, qiziqishlar, e'tiqodlar); aqliy fazilatlar (kuzatish, ehtiyotkorlik, aqlning moslashuvchanligi), hissiy (his-tuyg'ularning mazmuni va yo'nalishi), ixtiyoriy (ifodalilik, doimiylik, qat'iylik, qiyinchiliklarni yengish qobiliyati,

qat'iyatlilik, jasorat, maqsadga muvofiqlik) odatlar (deyarli avtomatlashtirilgan harakat usullari). Ularning barchasi bir-biriga bog'langan, ba'zida ma'lum bir komponent xatti-harakatlarda hukmronlik qiladi. Ularning kombinatsiyasi individual xususiyatlarga ega. Hatto bitta odam, hayotning o'ziga xos sharoitlariga qarab, turli xarakterli xususiyatlarni namoyon qiladi.

Xarakterni shakllantirishning sezgir davri ikki yoki uch yoshdan to'qqiz yoki o'n yoshgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Bolaning xarakterini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy rol uni o'rab turgan odamlar bilan muloqotda bo'ladi. Xulq-atvorning birinchi rudimentlari va shakllari asosan katta yoshdagi insonlar asosida (bola o'z yaqinlariga taqlid qiladi), shuningdek, hissiy mustahkamlash orqali o'rganish orqali shakllanadi. Maktabgacha yoshda mehnatga taalluqli xarakter xususiyatlarining asoslari - mehnatsevarlik, aniqlik, mas'uliyat, qat'iyatlilik asoslari qo'yiladi. Ushbu davrda yetakchi faoliyat syujetli va rolli o'yin bo'lganligi sababli, unda tegishli odatlar shakllanadi va mustahkamlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.g'oziyev E. Psixologiya (Yosh davri psixologiyasi). T.:2002

2.Nazarova, M. (2021). BOSHLANG ICH TA 'LIM O QUVCHILARINING PSIXIK TARAQQIYOTIDA INTEGRATSIYAVIY-INNOVATSION YONDASHUVLAR AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 7(7).

3.Khaitov , Bekzod Shukhratovich , and Nargiza Muzaffarovna Babaeva . "Problematic situations in higher authority administration and ways to improve of dealing with them." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 974-977.

3.Khaitov, BS (2022). METHODS FOR IMPROVING THE INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE OF THE HEAD OF A GENERAL EDUCATION INSTITUTION DURING THE EDUCATIONAL PROCESS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal , 10 (12), 928-931.

4.Khaitov , Bekzod Shukhratovich . "METHODS FOR IMPROVING THE INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE OF THE HEAD OF A GENERAL EDUCATION INSTITUTION DURING THE EDUCATIONAL PROCESS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 928-931.

5.Shukhratovich , Khaitov Bekhzod . "Innovative Methods of Developing Communicative Competence of the Head of Educational Institution." American Journal of Social and Humanitarian Research 3.5 (2022): 196-202.

6. Khaitov BS IMPROVING THE SYSTEM OF WORK WITH PARENTS OF SCHOOLCHILDREN IN THE ACTIVITIES OF DIRECTORS OF GENERAL EDUCATION SCHOOLS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. - 2023. - T . II. - no. 1. - S. 396-400.

7.Khaitov bekhzod Shukhratovich "Innovative methods for the development of communicative competence of the head of an educational institution" isn : 2690-9626v.3, No. 5, 2022

8.Haitov , Bekzod . "Methods of Improving Communicative Competence of the Head of Educational Institution." scienceweb academic papers collection (2022).